

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TADJIMOVA SHAXNOZA RASHIDOVNA

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING CHET TILI
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI
(texnik oliy ta'lim muassasalari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tadjimova Shaxnoza Rashidovna

Kredit-modul tizimida talabalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (texnik oliy ta’lim muassasalari misolida)..... 3

Таджимова Шахноза Рашидовна

Методика развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов в кредитно-модульной системе (на примере технических вузов)..... 23

Tadjimova Shakhnoza Rashidovna

Methodology of the development of students’ foreign language communicative competence in credit-module system (on the example of technical universities)..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TADJIMOVA SHAXNOZA RASHIDOVNA

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING CHET TILI
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI
(texnik oliy ta'lim muassasalari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Ped9443 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndpi.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mattiev Ilhom Begmatdo'lovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Kurbanbaev Djavod Aminbaevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "4" *aprel* soat 11.00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seitov ko'chasi, raqamsiz uy). Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*2* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seitov ko'chasi, raqamsiz uy. Tel.: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "17" *mart* kuni tarqatildi.
(2026-yil "17" *mart* daqi *22* raqamli rcestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

S.G. Matyakupov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi v.v.b., f.f.d., dotsent

A.B. Kamalov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fan, ta'lim, iqtisodiyot, texnologiya kabi jabhalarda sodir bo'layotgan globallashuv hamda integratsiya soha mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy etika va mahorat bilan birga xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiya darajasini muntazam rivojlantirish zaruratini vujudga keltirmoqda. Shu sababli AQSH, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida bir necha tillarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratiladi. Ta'kidlash joizki, Yevropa Kengashiga a'zo mamlakatlar fuqarolari kamida to'rt tilni bilishi lozimligi haqida mezon belgilanishi ilgari surilmoqda. Bir qator mamlakatlar tajribasida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan til ta'limi texnologiyalarini takomillashtirish, xorijiy tilni turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda muloqot tili sifatida o'qitish, bu borada mustaqil ta'limni tashkil etishning turli faol va interfaol shakllarini amaliyotga tatbiq etish belgilab berilgan.

Dunyo ta'lim muassasalarida hozirgi kunda tizimli ta'limga otish jarayoni kuzatilmoqda. Jumladan, kreditlarni to'plash va o'tkazishning Yevropa kredit-modul tizimi (ECTS) keng joriy qilinayotgan tizimlarning biri bo'lib, u yangi o'quv dasturlarni ishlab chiqish va o'quv jarayonini samarali tashkil qilishda muayyan o'zgarishlarni talab qiladi. Xorijiy tillar bo'yicha kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda ushbu kredit-modul tizimida mustaqil ta'limdan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yevropa va AQSH universitetlarida anchadan buyon chet tilidagi kommunikativ kompetensiya bitiruvchilarga qo'yilgan asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Bu o'z navbatida CEFR tamoyillari hamda o'quv yuklamasi hajmining 60-70 foizi mustaqil ta'limga qaratilgan Yevropa ECTS kredit tizimiga asoslanish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini chet tili bilan integratsiyalash orqali bo'lajak soha mutaxassislariga o'z kommunikativ ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarga muvofiq, kredit-modul tizimini joriy etish, shuningdek, jahon mehnat bozori talablariga muvofiq zamonaviy raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, bir necha xorijiy tillarni biladigan kadrlar tayyorlash qayd etilgan. Zero, Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz raqobatbardosh davlat bo'lishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bundan buyon har bir bitiruvchi kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilishi shart"¹. Ko'rinadiki, globallashuv davri soha mutaxassislarini tayyorlashda xorijiy tillarni mukammal bilish muhimligi yuzasidan turli mezonlarning sodir bo'lishi zaruriy ehtiyojga aylandi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xorijiy tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. 2021-yil, 6-may // Gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/06/foreign-language/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni; 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-824-son qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom”, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 15-yanvardagi “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 30-son buyrug‘i hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tuzilishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rgatish masalalari J.Jalolov, L.Axmedova, M.Axmedova, T.Sattorov, Y.Lagay, D.Mamirbayeva, A.Tajiyeva, Dj.Kurbanbaev, B.Arziyeva, Z.Sarsenbayeva kabi mutaxassis olimlar tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Mazkur jarayonda kommunikativ kompetensiyalar va uning komponentlarini rivojlantirish muammolari yuzasidan M.Mirzayeva, M.G‘ulomova, Dj.Kurbanbaev, N.Babaniyazova, X.Nuritdinova, N.Dauletiyarova, F.Sattorova, B.Sapayevalar tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kommunikativ kompetensiya”, kasbiy va pedagogik kompetentlik, xorijiy tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlar masalalari hamda ilmiy-metodik asoslari keng tahlil qilingan. V.O‘rinov, A.Tureniyazova, Sh.Allamuratov kabi olimlar ta’lim jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish masalalarini o‘rgangan bo‘lsa, G.Nazarqulova, A.Ashurov, D.Sarimsakova, I.Utayeva, Sh.Ismatova kabilarning tadqiqotlari xorijiy tillarni o‘qitish va mustaqil ta’limni tashkil etishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlanadi.

MDH va boshqa xorijiy davlatlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish darajasi va shakllantirish usullari yuzasidan S.Chichilanova, A.Andriyenko, Y.Roginko, Y.Passov, G.Krasnoshekova, B.Karabayev; tillarni o‘qitish metodikasining dolzarb muammolar hamda unda kompetensiya va

kompetentlik masalalari I.Bim, N.Galskova, N.Gez, I.Zimnyaya, A.Xutorskoy, Y.Passov, Y.Polat; ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida pedagogik yondashuv, til kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy jihatlarida esa N.Chomsky, M.Lewis, G.Rickheit, H.Strohner, S.Savignon, J.Richards, C.Bhooma kabi olimlar tadqiqotlarida nazariy jihatdan o'rganilgan va muayyan natijalarga erishilgan.

Biroq kuzatishlardan aniq bo'ldiki, hozirga qadar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari bo'yicha kredit-modul tizimida mustaqil ishlar doirasida texnik yo'nalish talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini va uni takomillashtirishga qaratilgan maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Bu esa bizning tadqiqot mavzuumiz dolzarbligi, mazkur muammo yuzasidan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan umumlashtirilgan tahlillar, ishlab chiqilishi lozim bo'lgan taklif va tavsiyalarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Innovatsion texnologiyalar asosida chet tilini o'qitish usullarini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kredit-modul tizimida texnik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalari talabalarining chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini xalqaro tajribalar asosida tahlil qilish;

ingliz tilini o'qitishda nutq faoliyati turlarining to'liq rivojlanmaganligi sabablari hamda uning asosiy omillarini aniqlash;

chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda kredit-modul tizimining o'rni va imkoniylirini aniqlash va mustaqil ishlarni tashkil etishning samarali interfaol metodlarini belgilash;

oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni tashkil etish orqali talabalarda ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning modelini takomillashtirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnik oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida mustaqil ishlarni tashkil qilish orqali talabalarining chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni tanlangan. Unda 355 nafar birinchi kurs respondent-talabalar jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish orqali chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda nazariy va empirik, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba (tayyorgarlik-nazariy, ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichlar), so'rovnomalar, shuningdek, Pirsonning χ^2

mezoniga asoslangan statistik qayta ishlash, miqdoriy va sifatli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika OTMLari talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati kredit-modul ta'lim tizimi sharoitida mustaqil ta'lim faoliyati doirasida ilmiy-nazariy jihatdan aniqlashtirilgan, bunda kompetensiyaning tarkibiy komponentlari sifatida lisoniy kompetensiya va nutqiy kompetensiyaning integratsiyalashuvi, shuningdek, kasbiy-texnik yo'nalishdagi ta'lim mazmunining kontekstual talablari (kasbiy vaziyatlar, terminologik minimum, kommunikativ vazifalar) asosida takomillashtirilgan;

chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar majmui hamda uning tavsifiy xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan va aniqlashtirilgan, shuningdek, kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar (rolli o'yinlar, keys-stadi, simulyatsiyalar, loyiha metodi, kommunikativ topshiriqlar, Google Classroom) tizimlashtirilib aniqlashtirilgan;

texnika OTMLari talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish sharoitida chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni maqsad, mazmun va natija bloklari asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan, reproduktiv, reproduktiv-amaliy hamda ijodiy bosqichlarni qamrab oluvchi modelni takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

texnika OTMLarining real ta'lim amaliyoti sharoitida takomillashtirilgan metodikaning samaradorligi empirik tadqiqot natijalari asosida tasdiqlangan: tajriba guruhlari talabalarida chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning shakllanganlik darajasi bo'yicha ijobiy o'sish dinamikasi qayd etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimida mustaqil ishlarni bajarish faoliyati jarayonida talabalarning chet tili bo'yicha kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

xorijiy til moduli bo'yicha mustaqil ishlarni bajarishda foydalaniladigan mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

mustaqil ta'lim jarayonida turli mini loyiha ishlari, turli tadbirlar va tanlovlar, shuningdek, Google Classroom o'quv platformasida mavjud o'quv resurslarini kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi talabalar uchun "English for IT" va "English for IT-2" o'quv-uslubiy qo'llanmalari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va metodik yechimlarning ilmiy asoslanganligi, kredit-modul tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ishlariga tayanilganligi, ishonchli ilmiy va me'yoriy manbalardan foydalanilganligi, tanlangan usullarning qo'yilgan vazifalarga mosligi, shuningdek, tajriba ma'lumotlarining reprezentativligi bilan ta'minlanadi. Takomillashtirilgan metodikaning samaradorligi matematik

statistika metodlari yordamida O‘zbekistonning uchta oliy ta’lim muassasasida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnika oliy ta’lim muassasalari sharoitida “kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya”, “chet tilida kommunikativ kompetensiya” tushunchalari mazmuni aniqlashtirilganligi, ingliz tilini o‘qitish metodikasi yuzasidan mavjud nazariy yondashuvlarni to‘ldirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mustaqil ishlarini kredit-modul tizimi talablariga muvofiq tashkil etishda talabalarning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish yuzasidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmaning amaliyotga joriy etilgan, shuningdek, tadqiqot materiallaridan ingliz tilidan darsliklar, turli o‘quv dasturlari va boshqa o‘quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning kredit-modul tizimida mustaqil ishlarni bajarish doirasida chet tilida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takimollashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

texnika OTMlari talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati kredit-modul ta’lim tizimi sharoitida mustaqil ta’lim faoliyati doirasida ilmiy-nazariy jihatdan aniqlashtirilgan, bunda kompetensiyaning tarkibiy komponentlari sifatida lisoniy kompetensiyasi va nutqiy kompetensiyaning integratsiyalashuvi, shuningdek, kasbiy-texnik yo‘nalishdagi ta’lim mazmunining kontekstual talablari (kasbiy vaziyatlar, terminologik minimum, kommunikativ vazifalar) asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Self-study tasks for developing foreign language communicative competence: A guide for the 1st-year students” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug‘i asosida berilgan 5462240 raqamli guvohnoma). Natijada, OTM talabalarining kredit-modul tizimida mustaqil ish doirasida chet tilida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar majmui hamda uning tavsifiy xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan va aniqlashtirilgan, shuningdek, kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan shakl, metod va vositalar (rolli o‘yinlar, keys-stadi, simulyatsiyalar, loyiha metodi, kommunikativ topshiriqlar, Google Classroom) tizimlashtirilib aniqlashtirish bo‘yicha berilgan takliflardan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 5-sentyabrdagi 353-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini o‘qitishda nutq faoliyati turlari to‘liq rivojlanmaganligi sabablarini aniqlashga imkoniyat yaratilgan;

texnika OTMlari talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish sharoitida chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni maqsad, mazmun va natija bloklari asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan, reproduktiv, reproduktiv-amaliy hamda ijodiy bosqichlarni qamrab oluvchi modelni takomillashtirishga oid tavsiyalar "Self-study tasks for developing foreign language communicative competence: A guide for the 1st-year students" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug'iga asosan berilgan 5462240 raqamli guvohnoma). Natijada, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga doir mustaqil ishlarda interfaol metodlardan foydalanishga erishilgan;

texnika OTMlarining real ta'lim amaliyoti sharoitida takomillashtirilgan metodkaning samaradorligi empirik tadqiqot natijalari asosida tasdiqlangan: tajriba guruhlari talabalarida chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning shakllanganlik darajasi bo'yicha ijobiy o'sish dinamikasiga oid takliflardan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2025-yil 5-sentyabrdagi 353-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnika OTMlarida talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning modelini mustaqil ishlar doirasida takomillashtirish va uning mohiyatini ochib berishga sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola chop etilgan. Shundan 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.


Dissertatsiyaning **“Talabalarning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “kommunikatsiya”, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kommunikativ kompetensiya”, “chet tilida kommunikativ kompetensiya” tushunchalariga nazariy va metodik tahlillar asosida ilmiy munosobat bildiriladi. Mazkur bobda qo‘yilgan muammo yuzasidan mavjud adabiyotlarda xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalarining amaldagi holati tahlil qilindi. Shuningdek, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi tavsiflab berildi. Talabalarning mustaqil ishlarni bajarish jarayonida ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga doir yondashuvlar va tamoyillarga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’kidlash lozimki, kommunikativ kompetensiya har bir bitiruvchi egallashi zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biridir. Shu ma’noda, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ularning tarkibiy qismlari hamda shakllantirish usullari masalalari har doim soha mutaxassislari diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ayni muammoni o‘rganish va zarur ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishda N.Chomsky, D.Hymes, M.Canale, M.Swain, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, N.I Gez, I.L.Bim, S.A.Chichilanova kabi xorij olimlarining tadqiqotlari alohida e’tirofga loyiq. Kompetentlik, kasbiy kompetensiya, xorijiy tillarni o‘qitishda o‘ziga xos yondashuv hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari J.Jalolov, N.A.Muslimov, F.E.Sattorova, A.T.Irisqulov, N.T.Ko‘chimova, D.R.Po‘latova, M.N.Mirzayeva kabi o‘zbek olimlari va A.Tajieva, D.Mamirbaeva, Dj.Kurbanbaev, N.Babaniyazova, N.Dauletiyarova kabi qoraqalpoq olimlari tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan holda turli xil metodlar, taklif va tavsiyalar beriladi.

Har bir sohaning o‘z spesifikasi bo‘lgani kabi texnika ixtisosligidagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligiga ham muayyan talablar qo‘yilgan. Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chet tilida kommunikativ kompetensiya – bu o‘sha tilda muloqot qilish qobiliyati bo‘lib, shu tildagi nutqiy munosabatlarni tushunish, ko‘nikmalar hamda ijtimoiy-madaniy bilimlarga o‘zlashtirganlikni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, muloqotning turli sohalar, jumladan, kasbiy yo‘naltirilgan vaziyatlarda chet tilidan samarali foydalanishini ta’minlaydi. Ayni shu masalalardan kelib chiqqan holda xorijiy til kompetensiyasi masalasi aniq soha yoki yo‘nalishlar kesimida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Y.A.Bushmanova o‘z tadqiqotida bo‘lajak axborot texnologiyalari mutaxassisining xorijiy til kommunikativ kompetensiyasi, ya’ni muloqotga kirishish qobiliyati hamda unga tayyorligini ta’minlash borasida ilmiy-metodik tavsiyalar beriladi. Darhaqiqat mutaxassis olim ta’kidlagan kompetensiyalar kompyuter texnologiyalari sohasida kasbiy muloqot hamda professional mutaxassislar hamjamiyatida samarali kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qiladi.

Biz, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining xorijiy tilidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning metodologik asoslari va

mazkur kompetensiyani mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish masalasi asosida yondashgan holda talabalar uchun zarur bo'lgan kommunikativ kompetensiyalarni quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratdik:



1-rasm. Chet tilida kommunikativ kompetensiyaning tarkibi


Mazkur tarkibiy qismlarning o'zaro uzviy bog'liqlik va muvofiqlikni vujudga keltirishi talabalar chet tilida kommunikativ kompetensiyasini baholash va rivojlantirishda kompleks yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Zero, chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish xorijiy tillarni o'qitish jarayonining ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat xorijiy tillarni o'qitishda maxsus yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Avvalo, texnik yo'nalishlarda ta'lim jarayonining kasbiy yo'naltirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohada unga oid leksik birliklardan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanish salohiyati talabalar uchun xalqaro texnik hujjatlar bilan ishlash, turli loyiha va konferensiyalarda ishtirok etish, xorijiy mutaxassislar bilan professional muloqotni amalga oshirish imkonini beradi.

Texnika yo'nalishidagi talabalar chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish faqat auditoriya mashg'ulotlari bilangina cheklanmay, balki mustaqil ta'lim jarayonida ham samarali amalga oshirilishi mumkin. Chunki, "Xorijiy til" fani texnika oliy ta'lim muassasalarida, odatda, faqat birinchi kursda har bir semestr uchun 48 auditoriya soati doirasida o'qitiladi. Mazkur soatlar hajmi talabalarda barcha til va nutq kompetensiyalarini to'liq shakllantirish, ularni kasbiy muloqotga tayyorlash hamda CEFR bo'yicha B2 darajaga yetkazish uchun yetarli bo'lmaydi. Bu esa talabalarining xorijiy til bo'yicha sifatli tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, talabalar maktab davrida xorijiy til bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmaganligi hamda ularning til bilish darajalari bir xil bo'lmasligi ham muhim omillardan sanaladi. Mazkur holatlar ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar va samarali metodikalarni joriy etish, mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur ekanligin ko'rsatadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida motivatsiyaning rivojlanishiga, eng avvalo, unga mos qo'llanilayotgan ta'limiy metodlar va pedagogik yondashuvlar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Chet tilidagi kommunikativ kompetensiya tushunchasi mazmunan keng va ko'p qirralidir. Uni rivojlantirish jarayonida lingvistik kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etgan holda fonetik, leksik va grammatik

bilimlarni o'z ichiga oladi. Umumiy nutqiy kompetensiya gapirish, yozish, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarida aks etadi.

Mazkur kompetensiyalar o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanishi lozim, chunki ulardan birining yetarli darajada shakllanmaganligi boshqalarining samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.



2-rasm. Lingvistik kompetensiyaning tuzilishi

Lingvistik kompetensiya samarali nutqiy muloqotning asosini tashkil etib, u produktiv (gapirish, yozish) hamda retseptiv (tinglab tushunish, o'qish) til ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlaydi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishga yondashuv va metodlarning turli xillari mavjud. Biroq kredit-modul tizimi (ta'lim jarayonida asosiy yuklama mustaqil ta'limga ko'chirilgan)da, talabalarni o'qishga undovchi, mustaqil o'qishni shakllantiruvchi hamda chet tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Bu o'rinda ta'lim jarayonida kommunikativ, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim omillar sanaladi. Zero, mazkur yondashuvlar chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Negaki, *kommunikativ yondashuv* – real muloqot vaziyatlarida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish; *kompetensiyaviy yondashuv* – ta'lim jarayonini yakuniy natijalarga yo'naltirish va shakllantirilgan ko'nikmalarining amaliy ahamiyatini ta'minlash; *shaxsga yo'naltirilgan yondashuv* – talabanning ta'lim jarayonidagi subyektiv pozitsiyasini mustahkamlash, o'quv mustaqilligi va motivatsiyasini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Dissertatsiyada chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlovchi didaktik tamoyillar keng tahlil qilindi. Xususan, tilni muloqot jarayonida o'zlashtirish, til ko'nikmalari integratsiyasi, situativlik, faollik, ongli o'rganish, ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi, individuallashtirish hamda tanlov erkinligi (elektivlik) kabilar asosiy tamoyillar sifatida e'tirof etildi. Ulardan elektivlik tamoyili kredit-modul tizimi sharoitida muhim ahamiyat kasb etgan holda talabalar tomonidan mustaqil ish shakllari, mazmuni va mavzularini o'zlarining qiziqishlari hamda ta'lim ehtiyojlariga mos holda ongli ravishda tanlash imkonini yaratadi. Mazkur tamoyilning amalga oshirilishi talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, mas'uliyati va mustaqillik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda kredit-modul tizimining roli va imkoniyatlari**” deb nomlanib unda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish imkoniyatlari tadqiq etiladi.

Kredit-modul tizimi – bu ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan, o‘qitish, o‘rganish va bilimlarni baholash jarayonlarida shaffoflikni ta’minlash tamoyiliga asoslangan holda kreditlarni jamlash va hisoblash iborat bo‘lgan tizimdir. *Kredit* – o‘quv fanining mehnat sig‘imini ifodalovchi o‘lchov birligi bo‘lib, u talabanning mazkur fan bo‘yicha auditoriya mashg‘ulotlarida, kutubxonada va mustaqil tayyorgarlik jarayonida sarflaydigan shartli vaqtini aks ettiradi. ECTS kredit-modul tizimi doirasida kredit talabanning muayyan fan bo‘yicha belgilangan o‘quv natijalariga erishish orqali egallagan o‘quv yuklamasini ifodalaydi. *Modul* esa ma’lum bir fan yoki fanlar majmuasini o‘z ichiga olgan, bilish va kasbiy faoliyatga oid jihatlarni qamrab oluvchi, talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturining tarkibiy elementi bo‘lib, u tegishli nazorat shakli bilan yakunlanadi. *Kreditlar majmuyi* ta’lim natijalarini baholash vositasi, *modullar* esa o‘rganilayotgan o‘quv materialini mantiqiy jihatdan bo‘lish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda kredit-modul tizimini joriy etish chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda, ayniqsa, ingliz tilini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizim talabalarda og‘zaki nutq, tinglab tushunish, yozma nutq va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillarni faollashtiradi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimining qo‘llanilishi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki u talabalarni mustaqil ishlashga undaydi hamda ularning o‘quv faoliyati natijalari uchun shaxsiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Quyida (1-jadval) ta’limning an’anaviy va kredit-modul tizimi o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, kredit-modul tizimining asosiy xususiyatlari va ustun jihatlari ko‘rsatib berildi:

1-jadval

An’anaviy va kredit-modul tizimi qiyosiy tavsifi

An’anaviy tizim	Kredit-modul tizimi
Talaba passiv element sifatida ishlaydi, o‘qituvchi ko‘rsatmalarini bajaradi.	Talaba ta’lim jarayoni markazida bo‘ladi, o‘qituvchi maslahatchi vazifasini bajaradi.
Talabalar o‘quv rejasidagi barcha fanlarni o‘rganadilar, bu eng muhim ko‘nikmalarga e’tibor qaratish imkonini bermaydi.	Talabalar kasbiy sohaga oid muhim fanlarni tanlash huquqiga ega.
Vazifalarning aksariyati auditoriyada bajarilgan holda mustaqil ravishda kam shug‘ullanadilar.	Ishning katta qismi mustaqil o‘rganishga qaratiladi.
Ta’lim dasturi oliy ta’lim muassasasi tomonidan qat’iy tartibda shakllantiriladi.	Talaba tomonidan shakllantiriladigan moslashuvchan o‘quv dasturi.
An’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanish	O‘qitishning asosi - interfaol metodlar.
Asosan ko‘nikmalarni rivojlantirish, bilimlarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi	Bilish mustaqilligi, tanqidiy fikrlash va ijodiy faoliyatni shakllantirishga e’tibor qaratadi.

Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi hamda professional va kommunikativ kompetensiyalarni, jumladan, chet tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan bir qator tamoyillarga asoslanadi. Ilmiy va metodik adabiyotlarda Yevropa kreditlarni transfer qilish va jamlash tizimi (ECTS) doirasida quyidagi asosiy tamoyillar ajratib ko'rsatiladi:

talabaga yo'naltirilgan ta'lim – o'quv jarayonida asosiy e'tibor o'qituvchidan talabaga ko'chiriladigan, talabaning faolligi va subyektiv pozitsiyasini ta'minlovchi ta'lim modeli;

ta'lim va baholash jarayonlarining shaffofligi – majburiy va tanlov fanlari, kutilayotgan o'quv natijalari, baholash mezonlari va standartlari to'g'risida talabalarga to'liq va aniq axborot berilishini ta'minlash;

ta'lim dasturlarining moslashuvchanligi – fanlar spektrini kengaytirish, ta'limni tanaffusdan so'ng davom ettirish imkoniyati, "kirish va chiqish nuqtalari" sonining ortishi, o'rta maxsus ta'limdan oliy ta'lim dasturlariga o'tish, oliy ta'lim dasturlari o'rasida akademik o'tish imkoniyatlari, modulli tuzilishga asoslangan o'quv dasturlari hamda oldingi ta'lim natijalarini e'tirof etish;

talabalar akademik mobilligini oshirish – talabalarni almashinuv dasturlari asosida muayyan muddat davomida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishlari, o'quv faoliyatini amalga oshirishlari va to'plangan kreditlarning yo'naltiruvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan tan olinishi.

Kredit-modul tizimi va uning tamoyillari tahlil qilinar ekan, muhim xususiyatlardan biri sifatida *talabalar mustaqilligining ortishi* alohida ta'kidlanadi. Xususan, talabaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyilida talaba jarayon markaziga qo'yilib, o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishiga sharoit yaratadi. Ta'lim dasturlarining moslashuvchanligi va shaffofligi tamoyillari ham talabalarga o'zlari qiziqqan modullarni tanlash imkonini berib, ularning mustaqilligi va o'quv faoliyatida o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar mobilligi tamoyili esa ularga xorijiy oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim olish tajribasini egallash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, kredit-modul tizimida mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan sezilarli darajada ko'p bo'lib, bu talabalarining o'z ustida mustaqil ishlashi va uzluksiz rivojlanishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda *mustaqil ta'lim* oliy ta'lim tizimida eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki ta'lim dasturlarida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan umumiy o'quv vaqtining 60 foizigacha bo'lgan qismi aynan mustaqil ta'lim hisobiga to'g'ri keladi. Shu sababli mustaqil ish malakali mutaxassis tayyorlash sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Mustaqil ish mustaqil ta'limning asosi sifatida qaraladi. I.A.Zimnyaya mustaqil ishni auditoriya mashg'ulotlarida to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyatining mantiqiy davomi sifatida talqin qilib, u talaba bilimlarni mustaqil ravishda kengaytirish, chuqurlashtirish va bo'sh vaqtda davom ettirishga bo'lgan ichki ehtiyojini shakllantirishini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuvga

ko'ra, mustaqil ish faqat o'qituvchi tomonidan uyga berilgan topshiriqlarni bajarish bilangina cheklanmaydi, balki talabanning o'quv faoliyatini ongli ravishda davom ettirish va rivojlantirish jarayonini o'z ichiga oladi. Shuningdek, mustaqil ish talabanning o'quv jarayonidagi eng yuqori bosqichi, ya'ni o'z-o'ziga ta'limiy ta'minot shakli sifatida baholanadi va auditoriya mashg'ulotlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. P.I.Pidkasistiy mustaqil ishni "belgilangan maqsadga muvofiq ravishda muayyan faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish vositasi" sifatida qaraydi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, mustaqil ish texnika oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning ajralmas qismi, ta'lim jarayonini individuallashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi. U turli murakkablik darajasidagi o'quv topshiriqlarini auditoriya mashg'ulotlarida va undan tashqarida bajarishni, shuningdek, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Ko'rinadiki, mustaqil ishlar ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlash, talabalarda muhim kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Negaki, ayni jarayon talabalarni tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish, o'z-o'zini izlanuvchanlikka undash, o'quv avtonomiyasi, mas'uliyat, ijodkorlik hamda turli muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, bilimlarni mustaqil ravishda to'ldirishga tayyorlashga yordam beradi.


Biz texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani mustaqil ta'lim doirasida shakllantirishga mo'ljallangan modelni taqdim etamiz (3-rasm).

Modelning *maqsadli bloki* tadqiqotning umumiy maqsad va vazifalarini o'zida aks ettirgan holda kredit-modul tizimida talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Unda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hamda zamonaviy oliy ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar inobatga olingan.

Mazmuniy blok – chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini, metodologik yondashuvlarni, o'qitish tamoyillarini, ta'lim metodlari, vositalari hamda o'quv jarayonini tashkil etish shakllarini o'z ichiga oladi.

Natijaviy blok – chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning shakllanganlik mezonlari va ko'rsatkichlari, shuningdek, uning rivojlanish daraja (past, o'rta va yuqori)larini qamrab oladi. Tadqiqotda chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani baholashda kognitiv, motivatsion va refleksiv mezonlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuv zarurligi asoslangan, bu tajriba-sinov ta'limi jarayonida kompetensiyaning rivojlanish dinamikasini obyektiv aniqlash imkonini beradi.

Taklif etilgan model ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'zaro mutanosiblashtiradi hamda talabalarda nutqiy ko'nikma va malakalarni, o'quv motivatsiyasini, mustaqil fikrni va xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan kasbiy yo'naltirilganlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.



3-rasm. Kredit-modul tizimida mustaqil ish doirasida talabalarning chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning modeli

